

BOLALAR HUQUQLARI HIMOYASINING HUQUQIY ASOSLARI

Abduraxmonov Samariddin Sardorbek o'g'li

TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova

nomidagi akademik litsey o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20326243>

Annotatsiya: mazkur maqolada bola huquqi va xalqaro hujjatlarda belgilangan huquq va burchlar, bolalar xavfsizligi, bolalar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi ma'lumotlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: bola huquqi, xalqao hujjat, huquq va burch, bolalar xavfsizligi, xalqaro standartlar, bolalar ombudsmani.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati inson huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, bolalar va yoshlar huquqlarini ta'minlash masalasi xalqaro darajada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki har bir bola va yosh avlod jamiyatning kelajagi hisoblanadi. Ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish esa har bir davlatning muhim vazifalaridan biridir.

Ta'kidlash lozimki inson huquqlari xalqaro va milliy standartlar asosida e'tirof etiladi va himoyasi ta'minlanadi.

Xalqaro standartlar deklaratsiya, xalqaro shartnomalar (paktlar va konvensiyalar), xalqaro tashkilotlar rezolyusiyalari hamda rahbariy tamoyillar shaklida namoyon bo'ladi.

Deklaratsiya - bu muayyan sohadagi xalqaro munosabatlarni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab beruvchi umumiy tamoyillar majmuasidir.

Davlatlar o'z milliy qonunchiligini deklaratsiya qoidalariga moslashtirishi mumkin, biroq ularni bajarish majburiy hisoblanmaydi.

Inson huquqlarini himoya qilish xalqaro tizimining asosini xalqaro shartnomalar (bitimlar) - paktlar va konvensiyalar tashkil etadi. Mazkur turdagi xalqaro-huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilgan va qo'shilgan barcha davlatlar uchun umummajburiy ahamiyat kasb etadi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya shunday hujjatlardan biri hisoblanadi.

Bola huquqlari - bu irqi, millati, tili, jinsi, dini yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har bir bolaga tegishli bo'lgan huquq va erkinliklardir. Xalqaro huquq normalariga ko'ra, 18 yoshga to'lmagan har bir shaxs bola hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, milliy va halqaro hujjatlarda belgilanganidek, **18 yoshga to'lmagan** har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llanadigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, **bola hisoblanadi. Go'dak** - bir yoshgacha bo'lgan bola, **kichik yoshdagi bolalar** - bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 22, 27, 29-moddalarida, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 71-moddasida, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuninig 3-moddasida mazkur atama ifodalangan. Umumiy qoidaga ko'ra, bola (bolalar) - o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar) hisoblanadi.

Yuqoridagi hujjatlarga ko'ra, bolaning qonuniy vakillari - ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar hisoblanadi. Milliy qonunchiligimizga ko'ra, vasiylik va homiylik ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ularga ta'minot, tarbiya hamda ta'lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shaklidir.

Vasiylik o'n to'rt yoshga to'lmagan, homiylik esa o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan belgilanadi.

Agar bolaning huquqlari buzilsa (masalan, ota-onasi uni to'g'ri tarbiyalamasa, ta'minlamasa yoki huquqlarini suiiste'mol qilsa), bola o'zi mustaqil ravishda vasiylik va homiylik organiga yoki boshqa davlat organlariga murojaat qilish huquqiga ega. Bola yosh bo'lgani (muomala layoqati to'liq emasligi) sababli uning murojaatini rad etish mumkin emas.

Bola huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlardan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, BMT ixtisoslashgan tashkilotlari, jumdan YUNESKO hujjatlari ahamiyatli hujjatlar hisoblanadi.

Bolalar huquqlarini himoya qilish maqsadida xalqaro va milliy darajada ko'plab hujjatlar qabul qilingan. Ular orasida eng muhim hujjat BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasidir. U 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan bo'lib, bolalarning asosiy huquq va erkinliklarini belgilab beradi. Unda 54 ta moddadan iborat bo'lib, ularda bolalarning huquqlari. Konvensiyaga kiritilgan barcha huquqlar barcha bolalarga nisbatan qo'llaniladi.

Konvensiyaga binoan, bola mustaqil shaxs sifatida qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qildi.

Shundan so'ng mamlakatimizda bolalar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun va boshqa huquqiy hujjatlar qabul qilinib, bolalar manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Yuqoridagi hujjatlarga asosan, yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. Davlat sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratadi. Har bir bola tug'ilgan paytdan e'tiboran familiya, ism, ota ismi olish, millati va fuqaroligiga ega bo'lish huquqiga, shuningdek ularni saqlab qolish huquqiga ega. Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega. Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalani huquqiga ega. Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Bola huquqlarining himoyasi Bolalar ombudsmani, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat bolaning shaxsi, uy-joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiynoqlarga solishdan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishga jalb etilishidan himoya qilinishini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilinishi bilan "Bola huquqlari kafolatlari yanada kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-sonli qaroriga binoan Ombudsman hozirda o'z o'rinbosariga – bolalar huquqlari bo'yicha vakilga ega.

Shuningdek, Bola huquqlari bo'yicha Ombudsman lavozimi joriy qilinishi ham bu sohada muhim qadamlardan biri bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekistonda bolalarning sog'lom rivojlanishi bo'yicha ko'rsatkichlar xalqaro standartlarga mos kelmoqda.

Bola huquqlari bo'yicha vakil - bolalar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi, ularning ta'minlanishi ustidan nazorat olib boruvchi, murojaatlarni ko'rib chiquvchi hamda bolalarga oid davlat siyosati va qonunchilikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi davlat instituti.

Shu bilan birga, yoshlar huquqlarini himoya qilish masalasi ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda dunyo aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Shu sababli ularning ta'lim olishi, ish bilan ta'minlanishi, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun imkoniyatlar yaratish zarur.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konvensiyani qabul qilish tashabbusi ilgari surilgani ham katta ahamiyatga ega. Chunki hozirga qadar yoshlar huquqlarini to'liq qamrab oluvchi majburiy xalqaro hujjat mavjud emas. Bu esa davlatlarning yoshlarga oid siyosatini amalga oshirishda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston bolalar manfaatlariga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirar ekan, "hech bir bola e'tibordan chetda qolmaydi" degan tamoyilga amal qilmoqda.

Shuningdek, "Inson qadri uchun" g'oyasi hamda "hech kimni orqada qoldirmaslik" tamoyiliga muvofiq o'tkazilgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida mamlakatimiz Asosiy qonuniga bolaning huquq va manfaatlarini ta'minlash kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi ilg'or normalar kiritildi, milliy qonunchilik bola huquqlariga doir xalqaro normalarga to'la-to'kis muvofiqlashtirilmogda.

Mening fikrimcha, bolalar va yoshlar huquqlarini ta'minlash har bir davlatning ustuvor vazifasi bo'lishi kerak. Chunki bilimli, sog'lom va huquqlarini yaxshi biladigan yoshlar mamlakat taraqqiyotining asosiy kuchidir. Biz, yoshlar ham, o'z huquqlarimiz bilan bir qatorda, jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatlarimizni ham chuqur anglashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-sonli qarori.
4. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya.
5. Internet ma'lumotlari.